IJESD • International Scientific Journal
ISSN: 2955-0386
IF: 12.31

INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
GLOBALLAŞUV ŞAROITIDA TALABA YOŞLARNING IJTIMOIY BARQARORLIGINI TA'MINLAŞNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Niyazimbetova Laylo Rafaelevna.
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: p.f.f.d. (PhD) Ne'matova Flora Baxtiyor qizi
.niyazimbetovalaylo @gmail.com

ANNOTATSIYA. *Maqolada globallaşuv jarayonlarining talaba va öquvçi yoşlar dunyoqaraşi, ijtimoiy munosabatlari hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga ta'siri tahlil qilingan. Oliy va professional ta'lim muassasalarida yoşlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaşning nazariy-pedagogik mexanizmlari, xorijiy va özbekistonlik pedagog olimlarning yondaşuvlari hamda amaliy kuzatuv natijalari yoritilgan.*

KALIT SÖZLAR: *globallaşuv, talaba yoşlar, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy-axloqiy immunitet, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlaş, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy kompetensiya.*

АННОТАЦИЯ. *В статье проанализировано влияние процессов глобализации на мировоззрение, социальные отношения и духовно-нравственные ценности студенческой и учащейся молодежи. Освещены теоретико-педагогические механизмы обеспечения социальной устойчивости молодежи в высших и профессиональных образовательных учреждениях, подходы зарубежных и узбекских ученых-педагогов, а также результаты практических наблюдений.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *глобализация, студенческая молодежь, социальная устойчивость, духовно-нравственный иммунитет, информационная культура, критическое мышление, гражданская ответственность, социальная компетентность.*

ABSTRACT. *The article analyzes the impact of globalization processes on the worldview, social relations, and spiritual and moral values of student youth. Theoretical and pedagogical mechanisms for ensuring the social stability of young people in higher and vocational educational institutions, approaches of foreign and Uzbek pedagogical scholars, as well as the results of practical observations are highlighted.*

KEY WORDS: *globalization, student youth, social stability, spiritual and moral immunity, information culture, critical thinking, civic responsibility, social competence.*

Bugungi kunda jadal sur'atlar bilan keçayotgan globallaşuv jarayonlari jamiyat hayotining barça jabhalariga, xususan, ta'lim-tarbiya tizimi, madaniyat va yoşlar dunyoqaraşiga bevosita ta'sir körsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanişi, xalqaro akademik aloqalarning kengayişi va madaniyatlararo integratsiya yoş avlodning intellektual salohiyatini oşiriş uçun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Şunga köra, çeklanmagan axborot oqimi, virtual muhitdagi turli mafkuraviy ta'sirlar va ommaviy madaniyat unsurlari talaba hamda öquvçi yoşlarning ijtimoiy barqarorligini saqlaş masalasini pedagogika fanining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylantirmoqda.

Özbekiston Respublikasida yoşlarning huquq va manfaatlarini himoya qiliş, ularning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy jihatdan barkamol bölib voyaga yetişini ta'minlaş davlat siyosatining ustuvor yönalişi hisoblanadi. Xususan, Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida davlat yoşlarning şaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinişini ta'minlaşi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol iştirök etişini rağbatlantirişi qat'iy belgilangan hamda davlat yoşlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jıhatdan şakillanişi hamda rıvojlanişi

uçun ularning talim olişga, soğliğini saqlaşga, uy-joyga, işga joylaşişga, bandlik va dam olişga bölgan huquqlarini amalga oşiriş uçun şart-şaroitlar yaratadi. [1]. «Yoşlarga oid davlat siyosati töğrisida»gi Qonunda esa yoşlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni turli yot ğoyalar va axborot xurujlaridan himoya qilişning huquqiy-tashkiliy asoslari mustahkamlangan [2].

Mazkur maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, globallaşuvning şaxs ijtimoiylaşuviga ta'siri köp qirrali hodisa sifatida tadqiq etilgan. Mashhur sotsiolog E. Giddens globallaşuvni uzoq masofadagi ijtimoiy munosabatlarning intensivlaşuvi va mahalliy hayot tarzining global jarayonlar bilan bevosita boğlanişi sifatida izohlaydi [4]. U. Bek va Z. Bauman öz tadqiqotlarida zamonaviy axborot jamiyatida noaniqliklar va ijtimoiy xavf-xatarlarning ortişi natijasida şaxsning özligini anglaşi va barqaror hayotiy pozitsiyani saqlaşi murakkablaşib borayotganini ta'kidlaydilar [5; 6]. Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui esa demokratik va özgaruvçan jamiyatda ta'limning asosiy vazifasi şaxsda mustaqil fikrlaş, ijtimoiy tajriba va jamoaviy mas'uliyatni şakllantirişdan iborat ekanligini asoslab bergan [7]. UNESCO tomonidan ilgari surilgan global fuqarolik ta'limi konsepsiyasida ham raqamli asrda yoşlarning tanqidiy tafakkuri, bağrikengligi va barqaror rivojlanişga daxldorlik hissini rivojlantiriş ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3; 8].

Uşbu tadqiqotda Özbekistonlik yetakçi pedagog olimlar ham talaba va öquvçi yoşlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaşning nazariy-metodik asoslarini çuqur örganişgan. Jumladan, professor Oynisa Musurmonovaning "Ma'naviy qadriyatlar va yoşlar tarbiyasi" nomli fundamental monografiyasi hamda yoşlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy immunitetni şakllantiriga bağişlangan ilmiy maqolariga tayangan holda yoşlar ma'naviy madaniyatini şakllantirişda milliy qadriyatlar, oila va ta'lim muassasasi hamkorligining hal qiluvçi örnini ta'kidlab, şu jumladan ma'naviy-axloqiy immunitet şaxsning har qanday taşqi salbiy ta'sirlarga qarşi tura olişi va ijtimoiy barqarorligini saqlaşining boş omili ekanligini asoslagan [9]. Pedagogika fanlari doktori N.N. Azizxöjayeva esa ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va şaxsga yönaltirilgan yondaşuv orqali talabalarda mustaqil fikrlaş, kasbiy-ijtimoiy moslaşuvçanlik hamda özgaruvçan jamiyat talablariga tez moslaşa oliş kompetensiyalarini rivojlantiriş zarurligini ilmiy jihatdan yoritgan hamda u talaba tayyor bilimni şunçaki yodlab oluvçi obyekt emas, balki muommali vaziyatlarni mustaqil tahlil qiluvçi, faol subyekt bölişi kerak degan. [10]. Şuningdek, F.B. Ne'matova öz maqolalarida yoşlarning matn va axborotni tuşuniş tahlil qilş, öz fikrini erkin bayon qiliş hamda ijtimoiy muloqatga kirişa oliş qobiliyatini şakllantirgan hamda zamonaviy ta'lim jarayonida 4K tamoyili asosida tanqidiy fikrlaş va kommunikativ kompetentlikni şakllantiriş yoş avlodning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslaşuvi va mustaqil qaror qabul qiliş könikmalarini mustahkamlaşda muhim ahamiyat kasb etişini asoslab bergan [11].

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida talaba yoşlarning «ijtimoiy barqarorligi» tuşunçasiga quyidagiça mualliflik ta'rifini beriş mumkin: ijtimoiy barqarorlik — bu şaxsning jadal özgaruvçan axborot va ijtimoiy-madaniy muhit şaroitida özining ma'naviy-axloqiy tamoyillarini, milliy özligini va fuqarolik pozitsiyasini saqlagan holda taşqi ta'sirlarga tanqidiy yondaşiş, konstruktiv muloqotga kirişiş hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi bilan faol harakat qiliş qobiliyatidir. Pedagogik nuqtayi nazardan ushbu fazilat beşta özaro boğliq komponentning birligida namoyon böladi: qadriyatli-ma'naviy komponent (milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik), intellektual-axborot komponenti (media savodxonlik, ma'lumotlarni tahlil qiliş va feyklarni ajrata oliş), ijtimoiy-kommunikativ komponent (jamoada işlaş, bağrikenglik va nizolarni tinç yöl bilan hal etiş), ijtimoiy-faollik komponenti (volontyorlik, ijtimoiy loyihalar va jamoat işlarida taşabbuskorlik) hamda ijtimoiy-moslaşuv komponenti (stress va hayotiy qiyinçiliklarni yengib ötiş, mustaqil qaror qabul qiliş).

Ta'lim muassasalarida yoşlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaş jarayoni beşta asosiy metodologik yondaşuvga tayanadi. Şaxsga yönaltirilgan yondaşuv har bir talaba va öquvçini ta'limning

passiv obyektidan faol subyektiga aylantirişni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondaşuv nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qöllay oliş malakasini şakllantiradi. Aksiologik yondaşuv ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitişga xizmat qiladi. Tizimli yondaşuv esa ta'lim muassasasi, oila, mahalla va jamoat taşkilotlarining tarbiyaviy ta'sirini yagona maqsad sari birlaştiradi. Faoliyatga yönaltirilgan yondaşuv yoşlarni amaliy ijtimoiy loyihalarga jalb etiş orqali ularda real hayotiy tajriba hosil qilişni ta'minlaydi. Tadqiqot doirasida Törtköl tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining 65 nafar öquvçi yoşlari misolida diagnostik kuzatuv, anketa sörovnomasi va individual suhbatlar ötkazildim. Natijada öquvçilarning axborot oqimiga munosabati, ijtimoiy faolligi va ma'naviy-axloqiy barqarorlik darajasi tahlil qilindi. Dastlabki natijalar şuni körsatdiki, sörovnomada qatnaşgan yoşlarning 42 foizi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ma'lumotlarni manbasini tekşirmasdan qabul qilişga moyil ekanligi, 34 foizi esa jamoaviy va ijtimoiy taşabbuslarda öz fikrini erkin bildira olmasligi,uyalişi ikkilanişi aniqlandi. Şu bilan birga, ta'lim muassasasida taşkil etilgan «Media-immunitet» munozara klubi, muammoli keys-stadi maşğulotlari hamda soğlom turmuş tarzini tarğib qiluvçi volontyorlik harakatlariga jalb etilgan öquvçilarning 78 foizida tanqidiy fikrlaş, jamoada işlaş va ijtimoiy mas'uliyat körsatkiçlari sezilarli darajada oşgani kuzatildi.

Olingan natijalar şuni tasdiqlaydiki, globallaşuv şaroitida talaba va öquvçi yoşlarning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaşda faqatgina an'anaviy ma'ruza yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan çeklanib qoliş yetarli emas. Zamonaviy yoşlar axborotni tayyor holda qabul qilişdan köra, uni muhokama qiliş, bahslaşiş va amaliyotda sinab körişga moyil. Şu bois oliy va professional ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimini individual psixologik-pedagogik qöllab-quvvatlaş asosida taşkil etiş, dars jarayonida interfaol metodlar (debat, loyiha metodi, aqliy hujum) uluşini oşiriş hamda yoşlarning öz-özini boşqariş organlari faoliyatini jonlantiriş muhim pedagogik şart-şaroit hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, globallaşuv şaroitida talaba yoşlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaş kompleks va uzluksiz pedagogik jarayon bölib, u milliy qadriyatlar va zamonaviy axborot madaniyatining uyğunligiga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida şaxsga yönaltirilgan, kompetensiyaviy va aksiologik yondaşuvlarni tizimli tatbiq etiş, şuningdek, yoşlarni ijtimoiy ahamiyatga ega amaliy loyihalar va volontyorlik faoliyatiga keng jalb qiliş orqali ularda yot ğoyalarga qarşi mustahkam ma'naviy immunitet, tanqidiy tafakkur hamda faol fuqarolik pozitsiyasini şakllantiriş mumkin.

ADABIYOTLAR RÖYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toşkent: Özbekiston, 2023.
2. Özbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi ÖRQ-406-sonli «Yoşlarga oid davlat siyosati töğrisida»gi Qonuni.
3. UNESCO. Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 2014.
4. Giddens A. Runaway World: How Globalisation is Reshaping Our Lives. – London: Profile Books, 1999.
5. Beck U. What Is Globalization? – Cambridge: Polity Press, 2000.
6. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. – New York: Columbia University Press, 1998.
7. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
8. UNESCO. Global Citizenship Education in a Digital Age. – Paris: UNESCO, 2024.
9. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoşlar tarbiyasi. – Toşkent: Öqituvçi, 1996.

IJESD • International Scientific Journal
ISSN: 2955-0386
IF: 12.31

10. Azizxöjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toşkent: Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi Adabiyot jamğarmasi naşriyoti, 2006.

11. Ne'matova F.B. Boşlanğiç sinf öquvçilarida 4K tamoyili asosida kommunikativ kompetentlikni şakllantiriş // Ilm-fan va innovatsion rivojlaniş konferensiyasi materiallari. – 2026.